

---

**Mustaqillik ob'yektlari:SURXTEPADA YANGI BOG'CHA OCHILDI**

*"Surxtepa" mahalla fuqarolar yig'inida "Muhayyo" nomli xususiy bog'chaning ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Unda shahar hokimi Vosiljon Nazarov, shahar prokurori Sherzodjon Mavlonov, kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi hamda mahalla xodimlari hamda keng jamoatchilik vakillari ishtirok etishdi.*

*Tadbir avvalida shahar hokimi yig'ilganlarni Davlatimiz mustaqilligining 32 yillik bayrami bilan muborakbod etdi. Shundan so'ng mehmonlar tarbiyalanuvchilar uchun yaratilgan sharoitlar bilan yaqindan tanishdilar.*

*Tadbirkor Muhayyoxon Jo'rayeva tomonidan ushbu xususiy bog'chaning ochilishi hisobiga 50 nafar tarbiyalanuvchilarning qamrab olindi va o'n nafarga yaqin fuqarolarning bandligi ta'minlandi. Hokim yordamchisi Ra'noxon Xojibolayevaning tavsiyasiga ko'ra, tadbirkorga 250 mln. so'm imtiyozli kredit ajratildi.*

*Muassasa rahbarining ta'kidlashicha, ijtimoiy daftarlarda bo'lgan oilalarning farzandlarini tahsil olishlari uchun ham imkoniyat yaratilgan.*

2023-08-29 10:21:52